

581
K-28

KARIMJONOV ALIJON
JABBOROVA ONAXON MANNOPOVNA
MAMADALIYEV KAMOLIDIN RAXMATULLOYEVICH
ESHMANOVA NODIRA NAZARKULOVNA

**PEDAGOGIK TIZIMNI
BOSHQARISHNING
ME'YORIY ASOSLARI**



581
k-28

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Karimjonov Alijon
Jabborova Onaxon Mannopovna
Mamadaliyev Kamolidin Raxmatulloevich
Eshmanova Nodira Nazarkulovna

**PEDAGOGIK TIZIMNI
BOSHQARISHNING ME'YORIY
ASOSLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

-8406-

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari [Mant]: O'quv qo'llanma. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 272 b.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika fanidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroficha o'rganishni taqozo etadi. Pedagogika fanini o'zlashtirish — ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lmish inson kamoloti haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi.

Mazkur o'quv qo'llanma boshqarishning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalari, boshqarishning me'yoriy turlari, boshqa aqidalari va uslublarini nazariy hamda amaliy asosda yoritishga mo'ljallangan.

«Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari» majmuasi jamiyat-imizning yangi rivojlanishi davrdagi ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisdagi MUROJAATNOMASI asosida bayon etilgan. Xususan ta'lim muassasalar va oliy o'quv yurtlarining ichki boshqaruv tizimi, ichki boshqaruv tizimida rahbarlik uslubi, madaniyati, fazilati va obru-e'tibori, boshqarishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari, rejalashtirish, o'quv-tarbiya, maktab va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga va xodimlar bilan ishlashga rahbarlik qilishda hujjatlashtirish ya'ni me'yoriy asoslari o'z ifodasini topgan.

O'quv qo'llanma pedagogika instituti va universitetlarning maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab to «Pedagogika-psixologiya» (V 142400) yo'nalishlari bo'yicha tahsil oluvchi bakalavr, magistrlar, maktab va oliy ta'lim muassasalar boshqaruvlarini ish yuritish faoliyati bo'yicha katta ahamiyatga ega.

Taqrizchilar:

M.Tojiyev – Pedagogika fanlar doktori, professor

F.O'.Jumanova – Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir:

Sh.Q.Mardonov – Pedagogika fanlar doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-24-329-3

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I BOB. PEDAGOGIK TIZIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI FANINING MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFASI VA METODLARI.....	7
Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun -mohiyati va ahamiyati	7
Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsad va vazifalari.....	7
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM TIZIMI.....	35
O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi strukturasi.....	35
O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi sistemasi.....	35
III BOB. OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI.....	69
Oliy ta'lim tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari	69
IV BOB. TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	108
Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining tarkibiy mezonlari.....	108
Maktab va O'rta - maxsus ta'lim muassasalarining nazariy va amaliy metod – vositalari.....	121
V BOB. TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	129
Ta'lim tarbiya tizimini boshqarishning pedagogik asoslari	129
Ta'lim va tarbiya ishlarini boshqarishning me'yoriy asoslari.....	138
VI BOB. TA'LIM MUASSASALARINI ICHKI BOSHQARISHNING ME'YORIY MASALALARI	148
Ichki boshqaruvning tashkiliy masalalari Ichki boshqaruvning asosiy vazifalari	148
VII BOB. TA'LIM MUASSASALARI ISH FAOLIYATINI REJALASHTIRISH	177
Rejalashtirish va uning takomillashtirish yo'llari. Ta'lim muassasalar ish faoliyatini rejalashtirish va uning ahamiyati.....	177

**VIII BOB. SINFDAN VA TA'LIM MUASSASALARDAN
TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISH 184**

Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar	184
Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda rahbarning vazifalari.....	188
Ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etish tizimi	196

**IX BOB. XODIMLAR TANLASH VA ULARNING
MAHORATINI OSHIRISH METODLARI..... 210**

Ta'lim muassasalarini pedagogik xodimlar bilan ta'minlash va ularning mahoratini oshirish.....	210
Pedagogik kadrlash malakasini oshirish va rivojlantirish.....	219

Ilovalar	231
Adabiyotlar	268

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari kabi ta'lim sohasida, xususan ta'lim tizimini boshqarishning me'yorida ham tub islohotlar amalga oshirilmogda. Ta'lim tizimi, uni boshqarishning huquqiy, me'yoriy iqtisodiy — ijtimoiy, ma'naviy asoslari yaratilmogda. Bu esa pedagogik oliy o'quv yurtlari, o'qituvchilari malakasini oshirish institutlari, maktablar zimmasiga yangi vazifalarni qo'yilmogda.

Har tomonlama rivojlangan, erkin fikrlaydigan ozod fuqarosi tarbiyasi davlatimizning ustuvor vazifalari sirasiga kiritilgan.

Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari kursi talabalarini ta'lim tizimi va uni boshqarishning me'yoriy muammolari bilan tanishtirish maqsadini ko'zlaydi.

Fanning asosiy vazifalari, talabalarni ta'lim tizimini boshqarishning me'yoriy tamoyillari, shakllari, maqsadlari va vazifalari bilan tanishtirishdan iborat. Fanni o'qish davomida talabalar «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan yosh avlod tarbiyasiga qo'yilgan talablar bilan ham tanishtiradi.

Shu bo'yicha talabalar bilimlari va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar quyidagicha bo'lib, ular o'qish jarayonida pedagogika fanlari tizimini o'zlashtirish bilan birga pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslarini mukammal o'rganib boradilar.

Mazkur kurs bo'lg'usi o'qituvchilarni ixtisosligi bo'yicha bilimlarni egallash davomida ularning kasbiy malakasini, bilim, ko'nikma va salohiyatini oshirib boradi. Shuningdek, talabalar «Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari» fanidan egallagan nazariy bilimlarni amaliyotida tadbiiq etish ko'nikmasi va malakasiga ega bo'ladilar.

Talabalar o'qish natijasida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi zarur sanaladi:

— ta'lim tizimi va uni boshqarishning me'yoriga qo'yilayotgan zamonaviy talablar;

— yosh avlodni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash, milliy ta'lim — tarbiya an'analari asosida darsliklar, o'quv metodik qo'llanmalarni yaratish talablari;

I BOB. PEDAGOGIK TIZIMNI BOSHQARISHNING ME'YORIY ASOSLARI FANINING MAZMUNI, MAQSADI, VAZIFASI VA METODLARI

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining mazmun– mohiyati va ahamiyati.

Pedagogik tizimni boshqarishning me'yoriy asoslari fanining maqsad va vazifalari.

Fanining mazmun– mohiyati Xalq ta'lim bo'limi ish faoliyati va ahamiyati. pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida maktabshunoslik ta'lim sistemasini tashkil qilish, boshqarishning me'yoriy asosi va ta'lim muassasalarni boshqarishning hujjatlashtirish, undagi o'quv jarayoniga rahbarlik qilishning shakllari va metodlarini, muassasadagi mas'ul shaxslarning faoliyatini tadqiq qiladi hamda rahbarlik qilish tizimini bayon qiladi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi, shuningdek iqtisodiyotda boshqaruv tizimi va ijtimoiy rivojlanishda keng miqyosli islohotlar o'tkazilishi natijasida respublikada, eng avvalo, ta'lim sohasida zarur shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi. Respublikada tarkib topgan xalq ta'limining yangi tizimi yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Bu esa boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganishni Respublika ehtiyoji va uni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olishni talab qiladi.

Xalq ta'limi tizimi va umumiy ta'lim maktabini boshqarishning ijtimoiy boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, unga rahbarlik qilish va uni boshqarishning me'yorini takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra bu masala xalq ta'limi bo'limlarining, ta'lim — tarbiya masalalari rahbarlarining hamda pedagogika fani sohasida xizmat qilayotgan barcha olimlar va ilmiy xodimlarning doimiy diqqat e'tiboridagi bosh masalasi bo'lib qoldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, haqiqatdan ham iqtisodiyotimiz, madaniyat, ijtimoiy va ma'naviy hayotimiz mustaqillikni hozirgi sharoitida umumiy ta'limga ega bo'lgan insonni tarbiyalab yetishtirish darajasi va sifatiga yanada yuksakroq talablar qo'yilmoqda.

— O'zbekiston Respublikasi Konstituitsyasi va qonunlari asosida shakllangan ta'lim tizimini boshqarishning me'yoriy tamoyillari;

— boshqaruvchning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalari;

— boshqaruvni tashkil etish va rejalashtirish va hokazolar.

Mazkur fanni o'qitish samaradorligini ta'minlash maqsadida turli mavzularga oid tarqatma materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda o'quv muassasalar rahbarlari boshqaruv funksiyalarining integrativ sifatlarini tavsiyalovchi xususiyatlar: boshqaruvni ichki va tashqi o'zgarishlariga moslashtirish; boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash; rahbarlik uslublaridan samarali foydalanish; boshqaruv faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida me'yoriy hujjatlar belgilashni ko'rsatadi.

O'quv muassasalar rahbarlari ya'ni ta'lim jarayonini boshqaruvchilari uchun tayyorlangan ushbu qo'llanmada ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarishning me'yoriy yo'nalishidagi asosiy tushunchalar va ularning mazmun mohiyati, shuningdek ta'lim tarbiya jaryonini boshqarishning nazariy jihatlar va uning muassasalarni boshqarishning me'yorida qo'llanish uslublari keltirilgan bo'lib, zamonaviy maktab rahbarlari ta'lim muassasasi sharoitining turli jarayonlarida nafaqat boshqarishning me'yoriy sohasi yo'nalishida, balki amaliyotda tadbir eta olishi ta'lim muassasalari xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirishda va ularni boshqarishning me'yorida to'g'ri va izchil qarorlarini qabul qila olishi zaruriyati ham inobatga olingan.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining ilmiy kengashi, pedagogika – psixologiya fakulteti rahbariyati va xodimlariga hamda maktab rahbarlari va rahbar o'rinbosarlariga qo'llanmani tayyor bo'lishi uchun berilgan maslahat, taklif va amaliy yordamlari uchun samimiy minnatdorchilik bildiradi.